

I.f.d., prof. Samariddin Elmirzayev, Alisher Asatullayev

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

KORPORATIV BOSHQARUVDA KORXONANING INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada korporativ boshqaruvda korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirishning xususiyatlarini o'rganishda iqtisodchi olimlarning turli fikr-mulohazalari yoritilgan. Innovatsion strategiyaning turlari, uning xususiyatlari, innovatsion strategiyani tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan. Korporativ boshqaruvda korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirishni o'rganish asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion strategiya, innovatsion faoliyat, yashil innovatsiya, korporativ boshqaruv, innovatsion strategiyaning shakllanish mexanizmi.

CHARACTERISTICS OF FORMING THE INNOVATION STRATEGY OF THE COMPANY IN CORPORATE GOVERNANCE

Abstract. This article highlights the various opinions of economic scientists in studying the characteristics of the formation of the company's innovation strategy in corporate governance. Types of innovation strategy, its characteristics, mechanisms of forming innovation strategy are analyzed. Relevant conclusions are given based on the study of the formation of the company's innovation strategy in corporate governance.

Keywords: innovation, innovation strategy, innovation activity, green innovation, corporate governance, formation mechanism of innovation strategy.

Kirish

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida korporativ tuzilmalarning faol ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Korxonalarining iqtisodiy faolligini oshirish unda korporativ boshqaruvning samarali yo'lga qo'yilganligiga, shuningdek, korxonalar faoliyatida qanchalik darajada innovatsiyalardan foydalanilayotligiga ham bog'liq. Chunki mazkur jihatlarga e'tibor qaratilmas ekan korxonalarining moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi qoniqarli darajada bo'lmaydi. Qolaversa, iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida korxonalar tomonidan innovatsion strategiyalarning ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishi korxonaning bozorda o'z o'rnini saqlab qolishi, raqobatbardoshlikni oshirishi hamda yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar yaratishiga yordam beradi. Korxonalar tomonidan innovatsion strategiyaning joriy etilmasligi, o'z vaqtida faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha yangiliklarning

joriy etilmasligi, innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratilmasligi kelgusida salbiy natijalarga olib keladi. Yuqorida ta'kidlangan jihatlar korporativ boshqaruvda korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirish masalasi dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda bir qator olimlar tomonidan korxonalar korporativ boshqaruvida korxonaning innovatsion strategiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. "Korporativ boshqaruvda kompaniyaning innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda bugungi kunda yashil innovatsiyalarning o'rnini ta'kidlash lozim. Chunki yashil innovatsiyalar kompaniyalar faoliyatini yaxshilashga va kompaniyada korporativ boshqaruvni samarali tashkil etishga yordam beradi" [1]. Bugungi kunga kelib global ekologik muammolarga sabab bo'layotgan jihatlarning oldidni olish maqsadida kompaniyalarda innovatsion strategiya ishlab chiqilishi va unda yashil innovatsiyalarga urg'u berilishi xalqaro amaliyotda tez-tez uchramoqda.

M.Miozzo va P.Dewick o'z tadqiqotlarida korporativ boshqaruv va innovatsiyalar o'rtasidagi munosabatni tadqiq qilishgan. Ularning fikricha, "korporativ boshqaruv va innovatsiya jarayoni o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha tadqiqotlar hozirgi kunga qadar yetarli emas, chunki korporativ boshqaruvning asosiy nazariyalari innovatsiyalar tahlilini tizimli ravishda birlashtirmaydi. Korporativ boshqaruv korporatsiyalarga mablag' yo'naltiruvchi investorlar o'z investitsiyalaridan daromad olishlarini ta'minlash uchun qanday harakat qilishlari bilan shug'ullanadi" [2].

Shuningdek, yana bir guruh olimlar tomonidan korporativ boshqaruv va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq qilingan. Korxonalarda korporativ boshqaruvni tashkil etishda "aksiyadorlarning mulkchilik huquqi va innovatsiyalar o'rtasida salbiy munosabat yuzaga kelishi mumkin. Mazkur holat ba'zi mamlakatlarda aksiyadorlarning qonuniy himoyasi cheklanganligi natijasida kelib chiqadigan minoritar va yirik aksiyadorlar o'rtasidagi ziddiyatda ko'rinadi. Boshqa tomondan, mulkchilik huquqi va innovatsiyalar o'rtasida ijobiy munosabat ham mavjud bo'lishi mumkin, chunki yirik aksiyadorlar kompaniyaning bozor qiymati haqida ko'proq qayg'uradilar va qiymat yaratishi kutilayotgan loyihalarni ko'proq rag'batlantiradilar" [3].

Bir guruh olimlar innovatsiyalarning kompaniya faoliyatiga ta'sirini o'rganishgan. "Kompaniya innovatsiyalar sohasida yetakchi mavqeini saqlab qolishi, kompaniya shiddatli raqobat sharoitida bozorda uzoq muddatli yetakchilikni qo'lga kirita olishi bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shuning uchun kompaniyaning innovatsion qobiliyati uzoq

muddatli investorlarning daromadiga ta'sir qiluvchi eng muhim jihatlardan biridir” [4], deya ta’kidlashgan.

“Korporativ boshqaruvda bir nechta dolzarb masalalar mavjud. Agentlik nazariyasini ilgari suruvchilari uchun manfaatlar to‘qnashuvi ehtimoli mavjud bo‘lgan sharoitlarda asosiy hal qilinishi zarur bo‘lgan masala bu menejerlar (agentlar) mulkdorlarning manfaatlaridan ko‘ra shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yishi hisoblanadi. Agentlik munosabatlarida uchraydigan axborotlar assimetriyasi korrupsion amaliyotlar xavfini kuchaytirishi mumkin. Shaffof bo‘lmagan ma’lumotlar agentlarning korrupsion biznes xatti-harakatlarini yashirishi va global kapital bozorlarining samarali faoliyatiga putur yetkazishi mumkin” [5]. Korporativ boshqaruvni tashkil etishda, shuningdek, kompaniyaning innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda mazkur jihatlarni inobatga olish foydadan holi bo‘lmaydi.

A.Sheth va J.Sinfield fikricha, “innovatsion strategiya innovatsion maqsadlarni firmaning strategik maqsadlariga moslashtirish uchun asosiy boshqaruv dastagi hisoblanadi. Shuning uchun tanlash imkoniyati innovatsion strategiyaga xosdir. Biroq, innovatsion strategiyada kelajakda uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish kafolatlanmaydi. Innovatsion strategiya “qachon”, “nima uchun” va “nima” va “qanday” degan savollarga javob berishi zarur. Bu nazariy va amaliyot uchun muhim bo‘lgan aniq maqsadlar uchun innovatsion strategiyani ishlab chiqish va innovatsiyalarni boshqarish imkonini beradi” [6].

O‘zbekistonlik olimlar ham korxonalar faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish, ularning korporativ boshqaruvida innovatsion strategiyalarni samarali shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, B.Nasimov ta’kidlashicha, “korxonalarni faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish, strategik boshqaruv usullaridan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, korxonalar innovatsion faoliyatining strategik boshqaruvini joriy qilish uchun eng avvalo boshqaruvdagi kadrlarning bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirish, markazlashuv darajasini kamaytirish va bosqichlar orasidagi ma’lumot almashish tizimiga yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish, boshqaruvdagi xodimlarni innovatsiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, har bir boshqaruvchini o‘ziga yuklatilgan vazifalarni aniq va to‘liq tushunishi hamda ularni o‘z vaqtida bajarishini ta’minlash, norasmiy muloqotlar darajasini kamaytirish zarur” [7].

N.Baxriddinov korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy jihatlarga e’tibor qaratgan. “Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning oqilona tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni jamlash va ularni innovatsion jarayonlarning ustuvor sohalariga yo‘naltirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish – yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish, tadqiq etish va tashkil qilish, ishlanmalar va tashkiliy jarayonlarni, yangi turdagi texnika va texnologiyalarni, ish va xizmatlarni, shuningdek, boshqaruvning yangi shakl va uslublarini yaratish va joriy etishga yo‘naltirilgan pul mablag‘laridan foydalanishdir. Korxonalar innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalarini ichki (o‘z mablag‘lari) va tashqi manbalarga ajratish mumkin” [8]. Korxonalarda innovatsion strategiyani samarali amalga oshirishda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish muhim o‘rin egallaydi. Aks holda, yetarlicha moliyaviy ta‘minotsiz strategik maqsadlarga erishish muammoga aylanadi.

I.Madaminov ta‘kidlashicha, “global pandemiyadan so‘ng qator davlatlar uchragan iqtisodiy inqiroz korxonalar mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlardagi pul oqimlari harakatining cheklangani mamlakat milliy iqtisodiyotida innovatsion-investitsion faollikni ta‘minlash zaruriyatini tug‘dirdi. Har qanday davlatning iqtisodiy tanazzuldan chiqishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishishi hamda zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni barpo etishi avvalo samarali yo‘naltirilgan investitsiyalarga bevosita bog‘liq. Hozirgi jahon hamjamiyatida hali hanuz davom etayotgan global pandemiya sharoitida korxonalar investitsion-innovatsion faollikni ta‘minlashning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish ancha tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi” [9].

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlariga qo‘shilgan holda ta‘kidlashimiz lozimki, korxonalar rivojlantirishda innovatsion strategiyani samarali tashkil etish ko‘p tomonlama foydali hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada korporativ boshqaruvda korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirish masalalarini o‘rganishda ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash, analiz, sintez kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Innovatsion strategiyalar umumiy innovatsion maqsadlar va biznesda yangi qiymat yaratish bo‘yicha amalga oshiriladigan harakatlar majmui hisoblanadi. Innovatsiya joriy mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarga kichik o‘zgarishlar yoki qo‘shimchalar kiritishni anglatish bilan birga ilg‘or texnologiya yutuqlari yoki sanoatni o‘zgartiruvchi biznes tushunchalari shaklida ham namoyon bo‘ladi. Innovatsiyalar atrof-muhitga va biznesning o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun yaratilgan jarayonlarni qamrab oladi.

Innovatsion strategiyalarning bir qator turlari mavjud bo'lib, quyida proaktiv, aktiv, reaktiv va passiv innovatsion strategiyalarni tahlil qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion strategiyalar turlari [10]

Proaktiv innovatsion strategiyalarga ega bo'lgan kompaniyalar birinchi navbatda kuchli tadqiqot yo'nalishida ustunlikka ega bo'lib, texnologiyalar jihatidan yetakchi bo'lishadi. Ular turli xil manbalardan o'rganishadi va katta risk qilishadi. Proaktiv innovatsion strategiyalarda ko'pincha texnologik innovatsiyalardan foydalaniladi va bu radikal va qo'shimcha proaktiv innovatsion strategiyalarga bo'linadi. Radikal proaktiv innovatsion strategiyalarda mahsulot va xizmatlarning tabiatini o'zgartiradigan yutuqlarga erishish nazarda tutiladi. Qo'shimcha proaktiv innovatsion strategiyalarda mahsulot va xizmatlarning samaradorligini oshirishga olib keladigan texnologik o'zgarishlardan foydalanishga urg'u beriladi. Aktiv innovatsion strategiyalar mavjud texnologiyalar va bozorlarni himoya qilishni o'z ichiga oladi. Bu strategiyada kompaniyalar asosan ichki amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar bilan qo'shimcha innovatsiyalardan foydalanadilar. Reaktiv innovatsion strategiya operatsiyalarga e'tibor qaratadigan va riskka moyilligi past bo'lgan kompaniyalar tomonidan qo'llaniladi. Bunda kompaniyalar mavjud innovatsiyalardan nusxa ko'chirishadi va yangi qo'shimchalardan foydalanadi. Passiv innovatsion strategiyalarga ega kompaniyalar o'z mijozlari mahsulot yoki xizmatlarini o'zgartirishni talab qilguncha kutishadi.


Innovatsion strategiyalar ko'pgina biznes strategiyalaridan farq qiladi, chunki innovatsiyaning bosqichlari, vaqti va ta'sirini prognoz qilish qiyin hisoblanadi. Innovatsion strategiya biznesning innovatsiya maqsadlariga erishish

uchun resurslardan foydalanish, raqobat sharoitida ustunlikni yaratish bo'yicha qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Quyida innovatsion strategiyaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tamiz (2-rasm).



2-rasm. Innovatsion strategiyaning o'ziga xos xususiyatlari [11]

Samarali innovatsion strategiya bir qator natijalarga erishishda yordam beradi. Birinchidan, samarali innovatsion strategiya kompaniyaning innovatsion faoliyatining maqsadlari va ustuvorliklarini belgilaydi hamda resurslar va energiyani ushbu maqsadlarga erishishga yo'naltirishga yordam beradi. Bu kompaniyaning aniq reja asosida ishlashiga va kelgusida natijaga erishishiga poydevor bo'ladi. Ikkinchidan, samarali innovatsion strategiya mavjud bo'lganda kompaniya ichidagi turli bo'limlar o'z maqsadlaridan ko'ra umumiy maqsadlarga erishishga harakat qiladi. Uchinchidan, samarali innovatsion strategiya kompaniyalarga uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Samarali innovatsion strategiyasiz kompaniya raqobatdosh ustunlikni saqlab qola olmaydi va uzoq muddat davomida o'z mijozlarini saqlab qola olmaydi.



3-rasm. Korxonainnovatsion strategiyasining shakllanish mexanizmlari [12]

Korxonaning innovatsion strategiyasining shakllanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, korxonaning missiyasidan kelib chiqqan holda raqobat muhitini va innovatsion salohiyatini baholash lozim. Baholash natijalari ijobiy bo'lsa, ya'ni innovatsion strategiyani amalga oshirish imkoniyatlari yetarli bo'ladigan bo'lsa, korxonainnovatsion maqsadlarni aniqlash zarur bo'ladi. Innovatsion maqsadlar aniqlangandan so'ng innovatsion strategiya ishlab chiqish, joriy etish va erishilgan natijalarni baholash lozim. Erishilgan natijalar belgilangan maqsadga erishishni ta'minlagan bo'lsa, innovatsion strategiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, deb hisoblash mumkin (3-rasm). Innovatsion strategiyani samarali shakllantirishda vaqt va moliyaviy imkoniyatlarni inobatga olish lozimligini ta'kidlash zarur.

Xulosa

Korporativ boshqaruvda korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirish masalalarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni berish mumkin.

Birinchiidan, innovatsion strategiya korxonaga aniq natijalarga erishishga, ishonchi raqobatbardosh tizim yaratishga, daromadlarni yaxshilashga, korxonada faoliyatini baholashga va innovatsion madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Bunday natijalarga erishish uchun samarali innovatsion strategiyani ishlab chiqish, uni moliyalashtiruvchi manbalarni aniqlash, korxonada resurslaridan unumli foydalanish va innovatsion strategiyani samarali amalga oshirish zarur.

Ikkinchiidan, korxonani rivojlantirishda doimo moliyaviy resurslar manbaini aniqlash birlamchi masalalardan hisoblanadi. Bunday sharoitda korxonada tomonidan innovatsion strategiyani ishlab chiqilganligi va uning korxonada faoliyatida amalga oshirilayotganligi investorlar tomonidan inobatga olinadigan jihatlardan hisoblanadi.

Uchinchiidan, korporativ boshqaruv va innovatsion faoliyat o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki korxonada tomonidan asosiy e'tibor innovatsion faoliyatga qaratilsa, bu o'z-o'zidan yuqori xarajatlarni talab qiladi. Natijada, korxonada o'z foydasidan ko'proq mablag' ushbu faoliyatga yo'naltirishi va aksiyadorlarga dividendlarni kamroq to'lashiga to'g'ri keladi. Bu esa aksiyadorlarning noroziligiga, bozorda aksiya kursi pasayishiga olib keladi. Agar korxonada faoliyatida innovatsion faoliyatni amalga oshirmaydigan bo'lsa, bu ham ijobiy holat emas. Chunki bunday holatda korxonada bozordagi o'rnini yo'qotishi va korxonaning kelajagi xavf ostida qolishi mumkin. Shu sababli korxonalar o'z innovatsion strategiyasini shakllantirishi va samarali amalga oshirish lozim.

To'rtinchiidan, korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirish mexanizmlarini to'g'ri shakllantirish lozim. Bunda xalqaro amaliyotni o'rganish va moslashtirish har tomonlama foydali hisoblanadi. Chunki rivojlanayotgan mamlakatlardagi korxonalarda innovatsion strategiya shakllantirish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Innovatsion strategiyani samarali shakllantirishda vaqt va moliyaviy imkoniyatlarni inobatga olish lozimligini ta'kidlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Li Xia, Shuo Gao, Jiuchang Wei, Qiyang Ding. Government subsidy and corporate green innovation-Does board governance play a role?//Energy Policy, Vol. 161, Feb. 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0301421521005851>
2. Marcela Miozzo, Paul Dewick. Building competitive advantage: innovation and corporate governance in European construction. // Research Policy, Volume 31, Issue 6, August 2002, Pages 989-1008. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0048733301001731>

3. Diego Asensio-López, Laura Cabeza-García and Nuria González-Álvarez. Corporate governance and innovation: a theoretical review. // European Journal of Management and Business Economics, Vol. 28 No. 3, 2019. - pp. 266-284 <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/EJMBE-05-2018-0056/full/pdf?title=corporate-governance-and-innovation-a-theoretical-review>

4. Lili Fu, Liyuan Pan, Fengyun Wu. Does passive investment have a positive governance effect? Evidence from index funds ownership and corporate innovation. // International Review of Economics & Finance Volume 75, September 2021, Pages 524-545. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1059056021000903>

5. Zahid Riaz, Pradeep Ray, Sangeeta Ray. The impact of digitalisation on corporate governance in Australia. // Journal of Business Research, Volume 152, November 2022, Pages 410-424. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0148296322006063>

6. Ananya Sheth, Joseph V. Sinfield. An analytical framework to compare innovation strategies and identify simple rules. // Technovation, Vol. 115, July 2022.

7. Насимов Бахтиёр Васиевич. Корхоналар фаолиятини стратегик бошқариш самарадорлиги. // “Иқтисодиёт ва инновациялар технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил. – 6-7 бетлар.

8. Нодирбек Бахриддинов. Корхона инновациялар фаолиятини молиялаштириш масалалари. // 25-06-2018. <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-technology-uz/2868-korkhona-innovatsion-faoliyatini-moliyalashtirish-masalalari>

9. Мадаминов Инъомжон Озодович. Корхоналардаги инновациялар инвестицион фаолликни молиялаштириш жараёнларини эконометрик моделлаштириш. // “Иқтисодиёт ва инновациялар технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2021 йил. – 11 б.

10. <https://terraskills.com/types-of-innovation-strategies/> - Terraskills Learning Systems Limited kompaniaysi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

11. https://digitalleadership.com/blog/innovation-strategy/#Importance_of_an_Innovation – Digital Leadership kompaniyasining sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

12. Н.М. Расулов, Б.Б. Муллабаев. Инновациялар жараёнларини стратегик бошқариш – корхоналар рақобатдошлигини оширишнинг муҳим омили. // “Иқтисодиёт ва инновациялар технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2014 йил. – 9 б. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/2_N_Rasulov.pdf